

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

***60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini
ko‘kalamzorlashtirish bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining***

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “25” iyun” dagi 212 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma‘lumotlar	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. Umumiy tavsifi

60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talablari 60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

O‘rmonlarni ko‘paytirish, himoya o‘rmonlarini barpo etish, aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish, ko‘chat yetishtirish, o‘rmon xo‘jaligi va landshaft dizayn ishlab chiqarishini tashkil etish va takomillashtirish bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida o‘rmonchi muhandis, dendrolog, landshaft dizayner.

60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, professional ta‘lim muassasalarida ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy–tadqiqot;*
- *tashkiliy–boshqaruv;*
- *loyihaviy–texnologik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Respublika va xorijda chop etilgan o‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirishga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish; soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish; mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-texnikaviy ma‘lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma‘lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish; ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

o‘rmon mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish;
amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;
zamonaviy texnologik jarayonlarni qo‘llash;
ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;
o‘rmonchilik va ko‘kalamzorlashtirish sohasida ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

O‘rmonchilik va ko‘kalamzorlashtirish sohasida mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko‘rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko‘rish;

o‘rmonchilik va ko‘kalamzorlashtirish sohasida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Loyiha-texnologik faoliyatida:

O‘rmonchilik va ko‘kalamzorlashtirish sohalarida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

loyihalashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash.

Axborot–tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo‘llay olishi;

og‘zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g‘oya, taklif, ta‘rif va xulosalarni mantiqiy, to‘g‘ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, malaka oshirish va o‘z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o‘zgartirishga qodir bo‘lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

o‘rmonchilik va ko‘kalamzorlashtirishga tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisobga olish va baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;

ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;

boshqaruv qarorni qabul qilish;

kasbiy muammolar yechimini topish;

ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;

fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘ini ishini tashkil qila olish va boshqarish;
bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish
hamda ish natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

o‘rmon barpo etish va parvarishlashda texnologik kartadan foydalanish;
o‘rmonchilik va ko‘kalamzorlashtirishda samarali va resurs tejankor faoliyatni
tashkil eta olish;

o‘rmon barpo etish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha ishlab chiqarish
jarayonlari, agrotexnik tadbirlarning bajarilishi sifatini nazorat qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion
vositalarni amaliyotda keng qo‘llash;

ilg‘or texnologik jarayonlarni qo‘llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni qo‘llash va tavsiya qilish;

yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;

tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalariga rioya
qilish;

xizmat ko‘rsatish sohasi me‘yoriy - huquqiy hujjatlaridan foydalana olish;

o‘rmonchilik va ko‘kalamzorlashtirish sohalarida servis xizmati ko‘rsata olish;
dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlar
o‘tkazish;

ilmiy ish hisoboti uchun ma‘lumotlar tayyorlash;

qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ish samaradorligi va sifatiga
javob berish;

respublika hamda xorijda chop etilgan o‘rmonchilik va
ko‘kalamzorlashtirishga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;

mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil
qilish va olingan ma‘lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda
qatnashish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

o‘rmonlar barpo etish va ko‘kalamzorlashtirish loyihasini ishlab chiqish,
ko‘chatzorlar tuzish loyihasini ishlab chiqish, o‘rmon barpo etish sxemalarini tuzish;

o‘rmon barpo etish va ko‘kalamzorlashtirish agrotexnikasini texnologik
qismini ishlab chiqish;

mahsulotlar sifatini baholashda ixtisoslikdan kelib chiqan holda chet el va
vatanimizda qo‘llaniladigan usullarni amalda qo‘llay olish;

loyihalashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsion va kompyuter
texnologiyalaridan foydalanish.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni
mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish,
tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga
qaratiladi.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. O‘quv tanishuv amaliyoti;

2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Umumiy Majburiy fanlar	4980	166	
1.01	O'EYTB1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	3
1.03	FALB1604	Falsafa	120	4	6
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O'TO'SQB1204	O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	2
1.06	JMSB1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	OMTB1204	Oliy matematika	120	4	2
1.08	EAMMB1104	Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi	120	4	1
1.09	TPAKB1104	Tuproqshunoslik va agrokimyo	120	4	1
1.10	O'XICHMB1104	O'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish	120	4	1
1.11	AKTB1206	Axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	1
1.12	MGTCHB1206	Muhandislik geodeziyasi va topografik chizmachilik	180	6	2
1.13	DENDB1112	Dendrologiya	360	12	1,2
1.14	O'RMCHB1308	O'rmonchilik	240	8	3,4
1.15	O'ENFTB1308	O'rmon entomologiyasi va fitopatologiyasi	240	8	3,4
1.16	AYAJKB1308	Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish	240	8	3,4
1.18	MBG'GB1310	Manzarali bog'dorchilik va gulchilik	300	10	3,4
1.17	O'TO'TB1508	O'rmon taksatsiyasi va o'rmon tuzish	240	8	5,6
1.19	O'UKB1508	O'rmon urug'chiligi va ko'chatchiligi	240	8	5,6
1.22	O'RMB1512	O'rmon melioratsiyasi	360	12	5,6
1.23	BPQLB1508	Bog'-park qurilishi va loyihalashtirish	240	8	5,6
1.20	O'XIICHTEB1504	O'rmon xo'jaligi iqtisodiyoti va ishlab chiqarishini tashkil etish	120	4	5
1.21	MADO'RB1706	Madaniy o'rmonlar	180	6	7
1.24	O'RMSELB1706	O'rmon seleksiyasi	180	6	7
1.25	O'RQFB1706	O'rmondan qo'shimcha foydalanish	180	6	7
1.26	O'YUQKB1704	O'rmon yong'inlari va ularga qarshi kurash	120	4	7
1.27	LALYEO'BEB1704	Lalmikor yerlarda o'rmon barpo etish	120	4	7
2.00		Tanlov fanlari	900	30	3-7

	<i>Tanlov fanlar</i>	900	30	3-7
Kvalifikatsiya	O‘rmonchi-muhandis, landshaft-dizayner			
	Jami:	5880	196	
	Malakaviy amaliyot	870	29	(2,4,6,8)
	Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	8
	Jami:	1320	44	
	HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma‘lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

O‘rmonchilik, aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish, o‘rmon barpo etish va parvarishlash agrotexnikasi, o‘rmon ko‘chatzori, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta‘lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, o‘quv reja va, fan dasturi (bakalavriat dasturi), o‘quv jarayoni, loyiha-texnologik faoliyat, xizmat ko‘rsatish, malaka amaliyoti, atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi, ishlab chiqarish texnologik, tashkiliy-boshqaruv, loyiha-texnologik, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, oliy ta‘lim muassasasi, ta‘lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, biznes-loyiha.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta‘lim muassasalari hamda kadrlar iste‘molchilari

**ISHLAB CHIQLIGAN:
Toshkent davlat agrar universiteti**

Birinchi prorektor  **S.Y. Islamov**



2024-yil « 8 » 06
M.O.

KELISHILDI:

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta‘limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Direktor  **M. Boltabayev****



2024-yil « 20 » 06
M.O.

**Namangan muhandislik-texnologiya
instituti**

Rektor  **O.O. Mamatkarimov**



2024-yil « 8 » 06
M.O.


**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya,
atrof-muhitni muhofaza qilish va
iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi
O‘rmon xo‘jaligi agentligi**



Direktor  **N.J. Bakirov**
2024-yil « 8 » 06
M.O.

**O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot
instituti**



Direktor  **S.A. Arabov**
2024-yil « 8 » 06
M.O.